



TERRITORIAL ORGANIZATION OF SOCIAL SECTORS IN THE KHOREZM REGION

Atayeva Nazira Polvonnazirovna

Lecturer in the Geography Department
at Urgench State University
named after Abu Rayhona Beruni.

Shomurodov Mansurbek Jonibek ugli

Student of Geography at the Urgench State
University named after Abu Rayhon Beruni

Abstract: This article analyzes the current state and development prospects of the social sector in the Khorezm region. To assess the effectiveness of ongoing reforms in education, healthcare, employment, social protection, and housing construction in the Khorezm region, research methods such as economic and geographical analysis, mathematical and statistical analysis, and mathematical modeling are used. Recommendations for modernizing social infrastructure, improving living standards, and enhancing the quality of social services are also proposed.

Keywords: employment, social protection, social infrastructure, social sectors, public utilities, hotel services, healthcare, education, tourism.

ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕКТОРОВ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Атаева Назира Полвонназировна

Преподавательница кафедры географии
Ургенчского государственного университета
по имени Абу Райхона Беруни.

Шомуродов Мансурбек Жонибек угли,
студент Ургенчского государственного университета
имени Абу Райхона Беруни.





Аннотация: В данной статье анализируется текущее состояние и перспективы развития социальной сферы в Хорезмской области. Для выявления эффективности проводимых реформ в сферах образования, здравоохранения, занятости, социальной защиты и жилищного строительства в Хорезмской области использованы такие методы исследования, как экономико-географический анализ, математико-статистический анализ и математическое моделирование. Также предложены рекомендации по модернизации социальной инфраструктуры, повышению уровня жизни населения и улучшению качества социальных услуг.

Ключевые слова: занятость, социальная защита, социальная инфраструктура, социальные секторы, коммунальные услуги, гостиничные услуги, здравоохранение, образование, туризм.

XORAZM VILOYATIDA IJTMOIY SOHALARNING HUDUDIIY TASHKIL ETILISHI

Atayeva Nazira Polvonnazirovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
geografiya kafedrasi o'qituvchisi
Shomurodov Mansurbek Jonibek o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Geografiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm viloyatida ijtimoiy sohani rivojlantirishning hozirgi holati va istiqbollari tahlil etilgan. Xorazm viloyatida ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya hamda uy-joy bilan ta'minlash sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi ochib berishda iqtisodiy-geografik tahlil, matematik-statistik tahlil va matematik modellashirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, aholining





turmush darajasini oshirish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: aholi bandligi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy infratuzilma, ijtimoiy sohalar, kommunal xizmatlar, mehmonxona xizmati, sog'liqni saqlash, ta'lim, turizm.

KIRISH. Hozirgi globallashuv sharoitida ijtimoiy sohani rivojlantirish har bir hududning barqaror taraqqiyoti va aholining turmush darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy sohalar - jamiyat hayotining ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya, madaniyat va uy-joy bilan ta'minlash kabi asosiy yo'nalishlarini qamrab olib, inson kapitalini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois, ijtimoiy sohalarni takomillashtirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar – mamlakatimizning turli hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga, qaratilgan. Xususan, Xorazm viloyatida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM. Xorazm viloyati ijtimoiy sohalarini keng qamrovli soha bo'lib o'z ichiga: ta'lim, maktabgacha tarbiya, sog'liqni saqlash, kommunal xizmatlar, maishiy xizmat ko'rsatish kabi bir qator kichik sohlarni birlashtiradi. Mazkur sohalar iqtisodiyotni rivojlanishiga zamin tayyorlovchi yetakchi sohalar sanaladi, hamda ularga turli darajada xizmat qiladi. Ayni paytda bu sohalar bir birini o'zni to'ldiruvchi sohalarni qamrab oladi. Masalan: maktabgacha ta'lim(bolalar yashilari va bog'chalari)-maktab ta'limini (boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim,) oliy va o'rta-maxsus ta'lim(o'rta-maxsus, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim) bir birini to'ldirib ta'lim tizimini shakllantiradi va iqtisodiyotning ko'pgina yo'nalishlariga kadr tayyorlab beradi.

MUNOZARA. Xorazm viloyatda ijtimoiy sohalarning yetakchi yo'nalishlaridan biri - **ta'lim** sohasi bo'lib, u ijtimoiy sohaning muhim strategik tomonlaridan hisoblanadi. Umumta'lim maktablari tarmog'i keng rivojlangan bo'lib, ta'lim muassasalari shahar va qishloq hududlarini to'liq qamrab olgan. Xorazm viloyati ma'muriy birliklaridagi maktablar soni va ularning mahallalar kesimidagi taqsimoti, mintaqa aholisining ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda





So‘nggi yillarda ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, maktablarni modernizatsiya qilish hamda ta’lim sifati va qamrovini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Viloyatda maktablar sonining tumanlar bo‘yicha farqlanishi aholi zichligi va aholi punktlarining joylashuviga bog‘liq. Bu holat ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojning hududiy jihatdan turlicha ekanini ko‘rsatadi. Jumladan Hazorasp va Qo‘shko‘pir tumanlariga eng ko‘p maktablar (mos ravishda 59 taga 58ta) to‘g‘ri kelsa, Yangibozor va Tuproqqal’a tumanlariga esa, maktablar soni ancha kam (mos ravishda 34 taga 23 ta) to‘g‘ri keladi(1-jadvalga qarang).

Mintaqada umumta’lim maktablari soni 2020-2021 o‘quv yilidan 2024-2025 o‘quv yiligacha izchil ravishda o‘sib borganligini 1-jadval tahlil qilishimiz orqali bilishimiz mumkin. Xususan, mazkur davrda maktablar soni **561 tadan - 593 taga** oshib, **32 taga** ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin. Bu viloyatda aholining o‘sishi va ta’limga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganini, shuningdek, ta’lim infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan davlat siyosati samarali amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval

**Xorazm viloyatidagi umumta’lim muassasalari soni
(berilgan o‘quv yillari boshiga nisbatan bitta birlik hisobida)**

Yillar kesimida	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024	2024/ 2025
Ma’muriy birliklar					
Tumanlar					
Bo‘g‘ot	54	53	53	53	53
Gurlan	45	45	45	45	45
Qo‘shko‘pir	54	54	55	57	58
Urganch	43	44	44	46	48
Hazorasp	54	54	55	56	59
Tuproqqa‘la	21	21	21	21	23
Xonqa	52	52	52	52	52
Xiva	41	43	43	43	43





Shovot	53	54	54	54	54
Yangiariq	41	41	41	41	41
Yangibozor	34	34	34	34	34
Viloyatga bo'ysunuchi shaharlar					
Urganch	44	46	48	50	53
Xiva	25	26	28	29	30
Xorazm viloyati	561	567	573	581	593

Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

Shaharlar kesimida Urganch va Xiva shaharlarida maktablar soni yil sayin ko'payib borgan. Ayniqsa, Urganch shahrida 2020-2021 o'quv yilida maktablar soni 44 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2024-2025 o'quv yiliga kelib esa 53 taga yetgan. Bu holat shahar hududlarida aholining zichlashuvi va yangi turar-joy massivlarining barpo etilishi bilan izohlanadi.

Tumanlar kesimida Qo'shko'pir, Hazorasp va Urganch tumanlarida maktablar sonining o'sishi kuzatilgan. Gurlan, Xonqa, Yangiariq va Yangibozor tumanlarda esa maktablar soni o'zgarmay, barqaror saqlanib qolgan bo'lib, bu hududlarda mavjud ta'lim muassasalarining hozircha aholi ehtiyojni qoplayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga maktablar soni qisqarishi Bog'ot tumanida kuzatilgan.

Ta'lim sohasini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

- aholi tez o'sayotgan hududlarda yangi maktablar qurish, ayniqsa shaharlar va ayrim tuman markazlarida o'quvchilar soni ortib borayotganini inobatga olib, yangi umumta'lim muassasalarini barpo etish;
- mavjud maktablarni rekonstruksiya qilish va kengaytirish, shuningdek, o'quvchilar soni ko'p bo'lgan maktablarda qo'shimcha sinf xonalari qurish, hamda, moddiy-texnik bazani yaxshilash;
- ta'lim sifati va pedagoglar salohiyatini oshirish, jumladan, o'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarini kengaytirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish;





- raqamli va innovatsion ta'limni rivojlantirish orqali maktablarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash, masofaviy va raqamli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish;
 - hududlar o'rtasidagi ta'lim imkoniyatlari tafovutini kamaytirish, xususan, qishloq hududlaridagi maktablarni shahar maktablari darajasiga yaqinlashtirish orqali ta'limda tenglikni ta'minlash maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Aholining salomatligi nafaqat ijtimoiy farovonlik, balki iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikning ham asosiy ko'rsatkichidir. Shu bois mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasini takomillashtirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va aholiga qulay sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xorazm viloyatda ham sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish yo'lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mintaqada zamonaviy tibbiyot muassasalari faoliyat yuritib, aholiga birlamchi va ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda. So'nggi yillarda tibbiyot infratuzilmasini yaxshilash, malakali kadrlar bilan ta'minlash hamda tibbiy xizmatlar hajmini oshirish borasida sezilarli natijalarga erishildi.

Xorazm viloyatida sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi so'nggi yillarda izchil va barqaror tus olmoqda. Tahlil qilingan statistik ma'lumotlar 2020–2024 yillar davomida viloyatda faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari sonining sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Bu holat hududda tibbiy infratuzilmani kengaytirish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar qamrovini yaxshilash hamda sog'liqni saqlash sohasiga bo'lgan e'tibor kuchayganidan dalolat beradi. Viloyat markazi va ayrim tumanlarda shifoxonalar sonining ko'payishi aholining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda ko'rsatkichlarning barqaror qolayotgani sog'liqni saqlash muassasalarini hududlar kesimida yanada muvozanatli joylashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, kelgusida mavjud resurslardan samarali foydalanish, tumanlararo tibbiy tenglikni ta'minlash va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.





2-jadval

**Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni
(birlik)**

Ma'muriy birliklar (yillar kesimida)	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Xorazm viloyati	56	72	75	75	83
shaharlar					
Urganch	27	34	34	36	35
Xiva	3	2	3	3	3
tumanlar					
Bo'g'ot	2	3	3	3	3
Gurlan	7	7	8	8	10
Qo'shko'pir	1	2	4	4	5
Urganch	6	10	8	7	10
Hozarasp	2	3	3	3	4
Tuproqqa'la	1	1	1	1	1
Xonqa	1	1	1	1	1
Xiva	2	1	4	3	3
Shovot	1	3	1	1	1
Yangiariq	1	1	1	1	1
Yangibozor	2	4	4	4	4

Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

Mintaqada shifoxonalar soni 2020 yilda 56 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 83 taga yetgan(2-jadvalga qarang), bu esa ularga bo'lgan talab oshayotgani va tibbiy sohaning ko'lami kengayotgani bilan izohlanadi. Bu borada Urganch shahri yetakchilik qiladi, bu esa tibbiy xizmat ko'rsatishning markazlashuvini bilan ifodalanadi.





Xorazm viloyatda ijtimoiy sohaning yana bir muhim tarkibiy qismi sifatida turizm sohasining, xususan mehmonxona xizmatining jadal rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Turizm nafaqat hududning iqtisodiy salohiyatini oshiradi, balki aholi bandligini ta'minlash, xizmatlar sohasi kengayishi va infratuzilmaning rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois viloyatda turistik faoliyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Birgina, 2020–2024-yillar davomida Xorazm viloyatida turistik faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar soni izchil o'sib borgan. Xususan, 2020-yilda 6 ta bo'lgan turistik tashkilotlar soni 2024-yilda 29 taga yetgan. Bu ko'rsatkich hududda turizm sohasiga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganini, shuningdek, ushbu yo'nalishda yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar va investitsion muhitning yaxshilanayotganini ko'rsatadi(3-jadvalga qarang).

Shaharlar kesimida Urganch va Xiva shaharlari turizm sohasining asosiy markazlari sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, Urganch shahrida turistik tashkilotlar soni 2020-yildagi 3 tadan 2024-yilda 16 taga yetib, eng yuqori o'sish sur'atini namoyon etgan. Bu holat Urganch shahrining transport-logistika markazi sifatidagi qulay joylashuvi, zamonaviy mehmonxonalar va xizmatlar infratuzilmasining rivojlanishi bilan izohlanadi. Xiva shahrida esa tarixiy-madaniy meros obyektlarining ko'pligi turizmni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

3-jadval

Xorazm viloyatida turistik faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar

Ma'muriy birliklar (yillar kesimida)	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Xorazm viloyati	6	8	14	22	29
Shaharlar					
Urganch	3	5	4	8	16
Xiva	2	2	4	7	6
Tumanlar					






Bo'g'ot	-	-	-	-	-
Gurlan	-	-	-	-	-
Qo'shko'pir	-	-	1	1	1
Urganch	-	-	3	4	3
Hozarasp	-	-	-	-	-
Tuproqqa'la	1	-	-	-	-
Xonqa	-	-	1	1	1
Xiva	-	-	-	-	-
Shovot	-	-	-	-	-
Yangiariq	-	1	1	1	2
Yangibozor	-	-	-	-	-

Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Xorazm viloyatida sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi so'nggi yillarda izchil va barqaror tus olmoqda. Tahlil qilingan statistik ma'lumotlar 2020–2024 yillar davomida viloyatda faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari sonining sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Bu holat hududda tibbiy infratuzilmani kengaytirish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar qamrovini yaxshilash hamda sog'liqni saqlash sohasiga bo'lgan e'tibor kuchayganidan dalolat beradi. Viloyat markazi va ayrim tumanlarda shifoxonalar sonining ko'payishi aholining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda ko'rsatkichlarning barqaror qolayotgani sog'liqni saqlash muassasalarini hududlar kesimida yanada muvozanatli joylashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, kelgusida mavjud resurslardan samarali foydalanish, tumanlararo tibbiy tenglikni ta'minlash va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.





1-rasm. Xorazm viloyati ijtimoiy va iqtisodiy drayver sohalari xaritasi.[2]

NATIZALAR. Turizm sohasining rivojlanishi ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, transport, savdo, umumiy ovqatlanish, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohalarning rivojlanishi aholining daromadlari oshishiga va yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Xorazm viloyatida turizmni hududiy rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Uy-joy bilan ta'minlash va kommunal xizmatlar ijtimoiy sohaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, aholining yashash sharoitlari, turmush darajasi hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xorazm viloyatida mazkur sohalarning hududiy tashkil etilishi aholi joylashuvi, urbanizatsiya darajasi hamda tabiiy-geografik sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanmoqda. Viloyatda uy-joy fondining asosiy qismi qishloq hududlarida joylashgan bo'lib, bu holat aholining katta qismi yakka tartibdagi uy-joylarda istiqomat qilishini ko'rsatadi.



Shahar hududlarida, ayniqsa Urganch shahrida ko'p qavatli uy-joylar salmog'i yuqori bo'lib, so'nggi yillarda yangi turar-joy massivlari barpo etilishi natijasida shaharsozlik jarayonlari jadallashmoqda. Bu esa uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasining oshishiga xizmat qilmoqda. Uy-joy qurilishi asosan viloyat markazi va yirik tuman markazlarida amalga oshirilayotgani hududiy notekislikni yuzaga keltirmoqda. Ayrim chekka tumanlarda esa yangi uy-joylar qurilishi nisbatan sust kechib, mavjud uy-joy fondining eskirishi kuzatilmoqda. Mazkur holat uy-joy siyosatini hududlar kesimida yanada muvozanatli tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Kommunal xizmatlar bilan ta'minlash darajasi ham hududlar bo'yicha farqlanadi. Shahar hududlarida ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi va kanalizatsiya tizimlari bilan qamrov nisbatan yuqori bo'lsa, qishloq joylarda ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Ayniqsa, kanalizatsiya tizimining qishloq hududlarida yetarli darajada rivojlanmagani aholining sanitariya-gigiyena sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda viloyatda ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, gaz va elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar kommunal xizmatlar sifatini oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash hamda hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan. Biroq, kommunal infratuzilmaning eskirganligi va ayrim hududlarda xizmatlar sifati pastligi mazkur sohada dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Xorazm viloyatida ijtimoiy sohalarning hududiy tashkil etilishi so'nggi yillarda viloyatda ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm hamda uy-joy va kommunal xizmatlar sohalarida muhim ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va islohotlar aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Ta'lim sohasida umumta'lim muassasalari sonining izchil o'sishi aholining ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini ko'rsatadi. Biroq, maktablarning hududlar kesimidagi notekis joylashuvi qishloq va shahar o'rtasidagi ta'lim imkoniyatlari tafovutini kamaytirish zarurligini anglatadi. Sog'liqni saqlash sohasida esa shifoxona muassasalari sonining ortishi tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirgan bo'lsa-da, ayrim tumanlarda tibbiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani hududiy muvozanatni ta'minlash masalasini dolzarb etmoqda.





Turizm sohasining rivojlanishi Xorazm viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va xizmatlar sohasini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Turistik faoliyat asosan shahar hududlarida jamlangan bo'lib, kelgusida tumanlarda turizm salohiyatidan samarali foydalanish hududiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Uy-joy va kommunal xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan ishlar aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan bo'lsa-da, hududlar o'rtasidagi farqlarni kamaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

XULOSA. Umuman olganda, Xorazm viloyatida ijtimoiy sohalarning hududiy tashkil etilishi aholining ehtiyojlari va hududlarning rivojlanish darajasidan kelib chiqib takomillashib bormoqda. Kelgusida ijtimoiy infratuzilmani kompleks va muvozanatli rivojlantirish, qishloq hududlariga alohida e'tibor qaratish hamda ijtimoiy xizmatlar sifati va tengligini ta'minlash viloyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni
- 2.Abdullayev A. G. et al. XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTNING O'SISH NUQTALARI VA ULARNING RIVOJLANISHINING IQTISODIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI //Экономика и социум. - 2023. - №. 5-2 (108). - С. 9-18.
- 3.Sodiqov A.M. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. –T.: „IFMR“. 2015. – 34b.
4. Soliyev A va boshqalar. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya.Toshkent: "Noshir" 2019. 512 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi Xorazm viloyati boshqarmi ma'lumotlari.
6. Xorazm stat.uz.

